



Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti



TASHENEV
UNIVERSITY



“Alisher Navoiy va XXI asr”

10-ULUSLARARO KONFERANSI

Toshkent-Shimkent, 2025-yil 6-fevral

“Әлішер Науаи және XXI ғасыр”

10-ХАЛЫҚАРАЛЫҚ КОНФЕРЕНЦИЯ

Ташкент-Шымкент, 6 ақпан 2025 жыл

“Alisher Navoi and the 21st century”

10th INTERNATIONAL CONFERENCE

Tashkent-Shymkent, February 6, 2025



فایرت بولغای ایردی رعایت
کری شریف یوق ساندین
کلم الناس علی قدر عقولهم

**Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Qozog'iston Respublikasi Jumabek
Tashenev nomli universitet**

«ALISHER NAVOIY VA XXI ASR»

**mavzusidagi 10-uluslararo konferansi
materiallari**

2025-yil 6-fevral

Toshkent - Chimkent - 2025

UO'K: 821.161.1=512.133

KBK: 83.3 (50)

A 51

Mas'ul muharrirlar:

Shuhrat SIROJIDDINOV,

filologiya fanlari doktori, akademik
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti rektori

Kanat BAYBOLOV,

Jumabek Axmetuli Tashenev nomli universitet rektori,
texnika fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati:

Boqijon To'xliyev (O'zbekiston), Nurboy Jabborov (O'zbekiston), Parida Bayneeva (Qozog'iston), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Yashar Qosim (Ozarbayjon), Islam Jemeney (Qozog'iston), Farhod Rahimiy (Eron), Sholpan Arzimbetova (Qozog'iston), Karomat Mullaxo'jayeva (O'zbekiston), Janna Botabaeva (Qozog'iston), Baxtiyor Fayzullayev (Tojikiston), Dilnavoz Yusupova (O'zbekiston), Nozliya Normurodova (O'zbekiston), Shahlo Naraliyeva (Qozog'iston), Ilyos Ismoilov (O'zbekiston), Azizullah Aral (Afg'oniston), Orzigul Hamroyeva (O'zbekiston), Ozoda Tojiboyeva (O'zbekiston)

Ushbu to'plamda "Alisher Navoiy va XXI asr" mavzusidagi 10-uluslararo konferansi materiallari jamlangan. To'plamda Alisher Navoiy adabiy-ilmii merosining mumtoz adabiyotimizdagi o'rni va bugungi kun uchun ahamiyati, shuningdek, shoir ijodiga bog'liq holda matnshunoslik va tilshunoslik muammolariga doir ilmiy maqolalar o'rin olgan. Navoiyshunoslikning bugungi holati va istiqboli borasida muayyan tasavvur berishi uning ahamiyatini belgilaydigan omillardan biridir. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavr talabalari hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

**Әлішер Науаи атындағы Ташкент
мемлекеттік өзбек тілі мен әдебиеті университеті**

**Қазақстан Республикасы Жұмабек
Тәшенев атындағы университет**

«ӘЛІШЕР НАУАИ ЖӘНЕ XXI ҒАСЫР»

**тақырыбындағы 10-халықаралық
конференция материалдары**

2025 жыл 6 ақпан

Ташкент - Шымкент - 2025

Abdulla Qodiriyning adabiy muvaffaqiyati va yozuvchilik mahorati shundaki, u Farhod va Shiringa o'xshash xalq orzu-umidlarining tajassumi bo'lgan qahramonlarni yaratishni havas qilibgina qolmay, ular muqobiliga qo'yadigan darajada yuksak iste'dod bilan ishlangan Otabek va Kumush obrazlarini ham yarata oldi. Xalq orasida mashhur bo'lib ketganligi, shoirlar qalamiga, xonandalar qo'shig'iga tushganligi adibning Farhod va Shirin, Layli va Majnun, Bahrom va Gulandom, Vomiq va Uzro, Oshiq G'arib va Shohsanam, Alpomish va Barchin kabi suyukli va o'lmas qahramonlar silsilasini Otabek va Kumush obrazlari bilan boyitdi.

O'zbek og'zaki va yozma adabiyotida o'z an'anasiga ega bo'lgan bu xil xususiyatlar, nasrga xos epiklikni tashkil etuvchi usul va vositalar Abdulla Qodiriy tomonidan realizm "dekcha"sida qayta ishlandi. Yozuvchi, o'zi aytmoqchi, asarni yozishda doimo o'quvchi ommani ko'z o'ngida tutgan; bu asar bilan xalqimiz rag'batini mumkin qadar yangilikka tortishga intilgan, ayni paytda shu kungacha o'rta asr dostonchiligi va hikoyanavisligi bilan ozuqlanib kelgan xalqning zavqini, saviyasini nazarda tutib, mumtoz adabiyot usullaridan ham ongli ravishda foydalangan. Qisqasi, bu roman til, ifoda tarzi jihatidan eski nasr bilan yangi, realistik nasr qolaversa, butun boshli mumtoz adabiyotimiz bilan yangi o'zbek adabiyoti orasidagi oltin ko'priq vazifasini o'tadi.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Qodiriy buyuk Alisher Navoiy an'anasini nasrga shunchaki ko'chirmadi, balki ularga ijodiy yondoshgan holda, epik tasvirga asoslangan realistik roman janrining yangi va yuksak namunasi yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Navoiy A. Tanlangan asarlar. Muhokamat ul-lug'atayn. -T.: O'zdatnashr, 1948. - B.194-195.
2. Navoiy A.Farhod va Shirin. -T.: Adabiyot va san'at, 1989. - B. 516; 519-520.
3. Mirvaliyev S. O'zbek romani. - B. 50-51.
4. Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. - T. O'qituvchi, 1976. - B. 443
5. Ochil E. Farhod - komil inson // Tafakkur, 2000 № 3. - B. 39.

"ALISHER NAVOIY" ROMANIDA OBRAZ POETIKASI

Rasulova Umida

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, f.f.d, prof.

rasulovaumida12@gmail.com

10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/OHCL1280

Annotatsiya. Ijodkorlar zamonaviy nasrga yangi tasvir, ifoda olib kirdilar, hayotni turli rakurslardan turib tasvirlay boshladilar. Ular mavzularni to'ldirib, boyitib bordilar. Ijtimoiy hayotdagi dolzarb muammolarni ijodiy yondashuv asosida kitobxonga yetkazishga harakat qiladilar. Nasriy asarlar poetikasida adabiy an'anaga sadoqat tarzida o'zlik, g'urur, jo'mardlik motivini rivojlantirish kuzatilmog'ida.

Kalit so'zlar: poetika, obraz, portret, talqin, matn, davr, xronotop, shaxs.

THE POETICS OF IMAGE IN THE NOVEL OF "ALISHER NAVOI"

Abstract. This article explores how contemporary authors have introduced new imagery and expressions into modern prose, offering diverse perspectives on life. Through creative approaches, they have enriched literary themes, aiming to convey the prevailing social issues to

readers. In the poetics of these prose works, a notable development is observed in the motifs of identity, pride, and generosity, which are presented within the framework of loyalty to literary tradition. The study examines how these motifs are reinterpreted and integrated into modern narratives, reflecting both continuity with the past and innovation in addressing contemporary concerns.

Keywords: poetics, image, portrait, interpretation, text, period, chronotope, personality.

Adiblarning badiiy sohadagi izlanishlari, mumtoz an'analar va folklordan unumli foydalanishi, dunyo adabiyotidan o'rganishlari o'z samarasini bermoqda. Dunyo adabiyotshunosligining ilmiy-nazariy talablariga javob beradigan nasr namunalari o'zbek adabiyotining yaqin tarixidagi mulkiga aylandi. Bu asarlar poetikasida turli yosh, kasb, dunyoqarashga mansub xarakterlar yaratildi. Ular orasida bolalar-u kattalar, ishchi-yu xizmatchilar, tentak-u darveshlar, ismsiz qahramon-u g'ayritabiiy go'daklar ham muayyan funksiyani bajarishga yo'naltirildi. Muhimi, asarda insonning mohiyatini teran anglatish, tiyatidagi fazilat-u illatlarni har tomonlama kashf etish tamoyili chuqurlashdi. Xususan, istiqloq davrida qahramon ongosti jarayonini isyon-u kufr kontrastida aniq badiiy talqin etishga e'tibor ortdi, tashqi faoliyatdan botindagi dardu iztirobni his ettirishga rag'bat kuchaydi.

Badiiy asarda insoniy kechinmalar jarayoni iztirob-u quvonchlar o'zining falsafiy talqinini topsa, asar qimmatini oshaveradi. Haqqoniy, ta'sirli yoritilgan voqelik har qanday jamiyat o'zgarishlarida ham mohiyatini saqlay oladi. Nosirlar yaratgan zamonaviy va tarixiy asarlarda inson qismatidagi ibratli lavhalar kitobxon qalbini zabt etadi, ma'naviy olamini boyitish orqali hayot yo'lini to'g'ri belgilashga imkon tug'diradi. Bu narsa inson qadrining oshishiga, qobiliyatini namoyon qilishiga asos bo'ladi. Xalq ilm-u ma'rifatga intilgan farovon yurtda adolat va inson manfaatlariga yo'naltirilgan qonun hukm suradi. Badiiy ijodda ham ma'naviy yetuklikka xizmat qiladigan asarlar yaralishi kitobxonni mamnun etadi.

Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romanida so'z shukuhi, salmog'i, jarangi poetik ifodani to'liq namoyon etadi. Mazkur romanda so'z sohiri Navoiy umr solnomasi turli rakursda yoritilar ekan, ma'no qatlamlarini uqishda "Xazoyin ul maoniy" asaridagi tartibotga rioya etiladi. Adib bolalik pallasidagi Alisherni ayni Attorning ijodidan masrur bo'lib, olamni o'zga rangda ko'rish, ustoz Kulohiy ilmu urfonidagi asl hikmatni anglashi lavhasiga birlashtiradi. Beg'ubor damlar amirzodalar bilan birgalikda diniy hamda dunyoviy ilmlarni o'zlashtirishda davom etadi. Yosh Alisher Farididdin Attor ma'naviy olamiga sayr aylab, tanholikda asarini qunt bilan uqishga intiladi. Isajon Sulton Navoiy asarlari ruhidagi falsafani idrok aylab, romanida bosqichma-bosqich anglatishni maqsad aylaydi. Hazrat Navoiy olamu odam mavxudligi sababiyatini asta o'rganar ekan, ahli ma'ni ta'limotiga ehtiromi ortadi.

Romandagi "Asr iztirobi. Shom qayg'usi" fasli Alisher Navoiyning mehr quyoshi Abdurahmon Jomiydan ayrilish onlari iztirobini tuydiradi. Shoir o'limi tiriklar vujudini pora aylar, ahli ilmni chuqur qayg'uga soladi. Alisher Navoiyning ustozni sakson yoshli nuroniy Abdulloh Kulohiyga bo'lgan yuksak ehtiromi ahamiyatga molik. Xokisorlik ila ustozga "Xamsa"ni hadya etgan tolib nuroniyning sevinch ko'zyoshlaridan mutaassir bo'ladi. Kamtar, halol mudarrisga shoir tomonidan yangi hovlining tortiq qilinishi ham ustoz sharaflari mehnatining mukofoti edi.

"Navoiyning qalbi nihoyasiz shukrona ila to'ldi. Umr pallalarini xotimalash va yagona Parvardigorga gunohlarni savobga aylantirishini so'rab iltijo qilish vaqti

kelgan, u esa "Munojot" bo'lib qog'ozga muhrlanishi kerak edi..." bitigida shoirning ilohiy saodatga yetishish onlaridagi ko'ngil izhori hayot sahifalarini ziynatlayotgan edi. Umr xotimasida oshiqning Yaratganga iltijosi sadolanar ekan, hidoyatga oshno ruhning foniylilik diyoriga nurli safari yog'dulanadi.

Asar poetikasida mozaika usulida "Xazoyin ul-maoniy", "Xamsa", "Lisonut tayr, "Mahbub ul-qulub" asarlari zimnidagi ma'no qatlamlari tiniqlashadi. Ular Alisher Navoiyning diniy va dunyoviy ilmlar ummonidagi javohirlarni kitobxonga taqdim aylaydi. Roman kompozitsiyasidagi badiiy voqealik bahor faslida boshlanib, qish faslida nihoyasiga yetadi. Bunda shoiri davron asaridagi kishi umri manzaralariga nigoh tashlanib, har birining fazli, hikmati uqib boriladi.

Isajon Sulton romani poetikasida Qur'ondagi sura, ular tarkibidagi qissalarning salmog'i bo'lakcha. Ular olamu odam yaralishdagi mahzan asroridan voqif aylaydi. Xususan, shoirning Husayn Mirzoning o'g'illariga yozgan nasihat maktublarida tayanch markaz Qur'on hukmi asosida to'g'ri hidoyat yo'liga boshlash edi. Otalar va bolalar orasidagi murosa rishtalar Nuh a.s va o'g'illari, Ozar va o'g'li Ibrohim a.s, Yoqub va Yusuf a.s, Ibrohim a.s va Ismoil a.s munosabatidagi muazzam ahkomlar misolida tiklanadi. Farzandlar itoat bois halovat topishi, aks holda isyoni halokatiga g'arq bo'lishi eslatiladi. Saltanatdagi farahbaxshlik, ofiyat podshoh hamda shahzodalarning o'zaro hurmat-u adolatiga bog'liqligini uqqan mutafakkir ular ko'nglini faqat Qur'oni karim munavvar aylashiga umid qilgan.

Romandagi tarixiy haqiqat asrorini yoritishda Hud a.s qissasidagi uch bulutning vayronkor yoxud bunyodkor xossasi borasidagi lavhalar nizolarga barham berishga chorlaydi. Iso a.sning o'lik vujudni tiriltirib uning amallari hisobidan osiy qavmni voqif aylashida, oxirat makonidagi sakinat yo shaytanatdan ogoh etgani ayonlashadi. Solih a.s davrida tosh ichidan chiqqan tuya rizqi, Sulaymon a.s.ning qudratidan hayiqmagagan chumoli o'g'iti, Muso a.sning Fir'avn bilan mubohasasidagi ajdarho zafari zamiridagi ilohiy mo'jizalar bani odamni yaralish hikmatini uqishga da'vat etadi.

Isajon Sulton asarda tush motivi vositasida Alisher Navoiy tarjimayi holidagi voqeaning o'z dostoni strukturasi badiiy idrok etilishiga ishora beradi. Samarqandlik davrida Alisher tushida ikki kaptarning polaponini uyga qaytara olmay, qayg'uga botib ortga qaytayotganida ikki burgut iskanjasida nobud bo'lganidan mahzun holga tushadi. "Layli va "Majnun" dostonida Majnun tush ko'rib, hayotining quyoshi, jonining qiblasi bo'lmish padar-u volidasidan ayrilganini anglab yetadi. Ular qabrini ziyorat aylagan motamzoda yigit hajr dog'ida tazarru qilib, oh chekadi. Muallif hazrat Navoiy olamini chuqur his qilgan, uning tafakkur kengliklaridagi urfon yog'dusidan bahramand bo'lganini e'tirof aylash darkor. Romanda adib mutafakkir fitratidagi ilohiy dardni o'z qalbidan o'tkazib, yuksak ehtirom, badiiy did ila uning saodatli umri sahifalarini yoritishga sazovor bo'lgan.

Isajon Sulton allomaning dunyo tamadduni rivojiga qo'shgan hissasini yoritishda tarix solnomasini sinchiklab kuzatgani, diniy va dunyoviy ilmga oid qarashlarini badiiy matn zimniga singdirgani ma'lum bo'ladi. Isajon Sulton taqdir taqozosi bilan turli makonga sayr aylab, xalqlarning ma'naviy, madaniy taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan Alisher Navoiy fitratidagi ezgulik, olijanoblik ilmu urfon ne'mati ila quvvatlanganini ta'sirli, tiniq ifodalab beradi. Ularning ilm sarchashmasidan millatigina emas, balki umuminsoniyat bahramand bo'layotgani, ahli olam asrorini yanada teran angalayotgani muhimdir.

Romanda qahramon tuyg'ularining tabiat hodisalari, fasllar almashinuviga parallel yo kontrast ifodalanishi borliqdagi yaratilgan aro sirli muvozanatni idrok aylashga imkon beradi. O'xshatish, sifatlash kabi badiiy vositalar asar ruhiga singib, ramziy ifodaviylik, ta'sirchanlikni orttirgani, manzara yorqin, tiniqligini ta'minlagani ma'lum bo'ladi.

Nasriy asarlar poetikasida millat fidoyilarining taqdiridagi assotsiativlik ham kuzatiladi. Ular ilm-u ma'rifat yo'lida o'zga makonga borishi, davrining podshohu amaldorlari ila murosa aylashi, xalq manfaati, halovati uchun kashfiyot, ixtiro qilishi, riyozat chekib hidoyatga noil bo'lishi badiiy gavalantiriladi. Har qanday jamiyat taraqqiy topishida sabotli, salohiyatli kishilar ilm ummonidagi javohirlarni avaylab, ularni millat manfaatiga xizmat qildirishi muhim hisoblanadi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Султон И. Алишер Навоий. – Т.: Шарк, 2021.
2. Rasulova, U. (2024, May). TANQIDCHINING TERAN NIGOHI. In *Konferensiyalar/ Conferences* (Vol. 1, No. 12, pp. 63-65).
3. Расулова, У. (2020). Сущность сатирического образа. *Иностранная филология: язык, литература, образование*, (2 (75)), 36-40.
4. Rasulova, U. (2020). NOVELTIES IN POETICS OF TALES. *Theoretical & Applied Science*, (1), 220-224.
5. Расулова, У. (2022). Badiiy asarda sarlavha poetikasi. *Ўзбекистан: тили ва култура. Литературоведение*, 1(1), 92-99.
6. Rasulova, U. (2023, November). NASRIY ASAR BADIYYATI. In *Konferensiyalar/ Conferences* (Vol. 1, No. 1, pp. 191-195).
7. Rasulova, U. (2024). Poetic Research in Modern Story-Writing. *SPAST Reports*, 1(1).
8. Улугов, А. (2024). Adabiy qahramon obrazi. *Ўзбекистан: тили ва култура*, 1(1), 4-32.

YETTI SAYYORA: BADIY TALQIN VA ILMIY DUNYOQARASH

Marg'uba Abdullayeva

filologiya fanlar doktori, professor

margubaabdullayeva507@gmail.com

10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/WUSV5623

Annotatsiya. Mumtoz adabiyotda badiiy asarlarning estetik ta'sirini kuchaytirish, xalq e'tiqodi va qadriyatlarini ifodalashda sirli raqamlardan foydalanib, go'zal badiiy tasvirlar voqeligi aks ettirilgan. Jumladan, 3, 7, 9, 18, 40 raqamlari bilan bog'liq qarashlar badiiy asarlarda muhim ahamiyat kasb etgan. Bular ichida 7 raqami ilohiy raqam sifatida talqin etiladi. Mazkur maqolada 7 raqamini 7 sayyora tasvirlari tahlili orqali o'rganishga harakat qilamiz.

Kalit so'zlar: mumtoz adabiyot, 7 sayyora, astronomik ilm, ilmiy dunyoqarash, Yusuf Xos Hojib, yetti kavokib, Alisher Navoiy, yetti sayyora, badiiy talqin.

SEVEN PLANETS: ARTISTIC INTERPRETATION AND SCIENTIFIC WORLDVIEW

Abstract. This article explores the use of mystical numbers in classical literature as a means to enhance the aesthetic impact of artistic works, reflecting the beliefs and values of societies. Specifically, numbers such as 3, 7, 9, 18, and 40 have held particular significance in

Fayzulla ISKANDAROV, Dostonjon Tojiev. "Alisher Navoi international award": establishment and historical significance for the turkic world	118
Diyora ABDUJALILOVA. Alisher Navoiy va Yahyobey Toshlijali dostonlarida shayx va avliyolar timsoli	124
Orifjon OLIMJANOV. Alisher Navoiy va Lorendeli Hamdiy "Layli va Majnun" dostonlari kompozitsiyasiga doir	131
II SHO'BA. NAVOIY NAZMIY, NASRIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI SECTION II. ISSUES OF STUDYING NAVAI'S POETRY, PROSE AND SCIENTIFIC HERITAGE	
Nurboy JABBOROV. Alisher Navoiy "Tarixi anbiyo va hukamo" asarining siyarnoma turkumida tutgan o'rni	136
Nusratullo JUMAXO'JA. Navoiyning yigitlik lirikasiga mansub mustazodi	149
Maqsud ASADOV. Alisher Navoiy "Tanbeh"larining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari ("Mahbub ul-qulub" asari misolida)	155
Dr. Kemal Yavuz ATAMAN. Ali Şir Nevaî beyitlerinde kulluk şuur	160
Zuhridin ISOMIDDINOV. Navoiyning "qaychi" g'azali	165
Baxtiyor FAYZULLOYEV. Qo'qon adabiy muhitida Navoiyga izdoshlik	170
Iqboloy ADIZOVA. Adabiy ta'sir va poetik tafakkurning yangilanishi	177
Nafas SHODMONOV, G'iyosiddin SHODMONOV. Olti dostonda Odam Ato timsoli talqini	185
Faridaxon KARIMOVA. Xorazm adabiy muhitida debochanavislik an'analari	193
Islomjon YAQUBOV. O'zaro ta'sir, ijodiy mushtaraklik va o'ziga xoslik	200
Shavkat HAYITOV, Gulshod SHOYIMOVA. Alisher Navoiyning nabotot va hayvonot olamiga munosabati	205
Obidjon KARIMOV. Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini	212
Gulbahor ASHUROVA. O'zbek ayol shoiralari ijodida Alisher Navoiy obrazi tasvirlari	216
Qo'ldosh PARDAYEV. Navoiy g'azallariga Muqimiyning nazira va taxmislari	221
Ilyos ISMOILOV. Abror hayrati	226
Shermuhammad AMONOV, Abdulhaq RAHIMI. Alisher Navoiy mustazodiga bog'langan muxammas haqida	229
Zilola AMONOVA, Shahlola SAFAROVA. "Farhod va Shirin" dostonidagi na't boblarning manbalari va badiiyati	235
Abdulhamid QURBONOV. Badiiy matn va tasviriy vositalar mutanosibligi	242
Muqaddas TOJIBOYEVA. Abdulla Qodiriy romanlarida Alisher Navoiyga izdoshlik masalalari xususida	248
Orzigul HAMROYEVA. Radifning bayt kompozitsiyasidagi o'rni	252

Ma'rifat RAJABOVA. Xalq maydon kulgi san'ati belgilarining Navoiy ijodidagi ko'rinishlari	256
Nodira SOATOVA. "Farhod va Shirin" dostoni - an'ana takomili, taraqqiysi hamda sintezi sifatida	260
Umida RASULOVA. "Alisher Navoiy" romanida obraz poetikasi	266
Marg'uba ABDULLAYEVA. Yetti sayyora: badiiy talqin va ilmiy dunyoqarash	269
Sohiba UMAROVA. Suyuma G'aniyeva - navoiyshunos	273
Zuhra MAMADALIYEVA. Alisher Navoiy "Xamsa"sida mirrix obrazining majoziylik xususiyatlari	277
Aziz RAJABIY. Alisher Navoiy g'azallarining ohang jilolari (Yunus Rajabiy musiqiy merosi misolida)	282
Zarif QUVONOV. "Hayrat ul-abror" ning yangi tadqiqatlari xususida	286
Farruxbek ABDALIYEV, Gulnoza OSMANOVA. "Xamsa"da "kampir" obrazi talqini	290
Nafisa RAXMANOVA. Ramziy-majoziy obrazlar ta'vili haqida mulohazalar	293
Kamola ULUG'MURODOVA. Navoiy nazmida Layli obrazining badiiy talqini	299
Mavluda ORTIQOVA. Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida valiylarga xos sifatlar talqini	303
Jamila EISAR. Alisher Navoiyning she'riyatida oyina timsolining talqini ("G'aroyib us-sig'ar misolida")	308
Azizbek TOSHPO'LATOV. Alisher Navoiyga izdoshlik: Ahmad Tabibiy taxmislari	313
Sevara PARMONOVA. Tasavvufiy tazkiralari va Alisher Navoiy asarlarida Ibrohim Adham nomining zikr etilishi	318
III SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING MANBALARI VA MATNIY TADQIQI	
SECTION III. SOURCES AND TEXTUAL RESEARCH OF ALISHER NAVAI'S WORKS	
Dilnavoz YUSUPOVA, Umedullo MAHMUDOV. Alisher Navoiyning "Munshaoti Abdulloh Marvoriy"dan o'rin olgan forsiy maktublari xususida	323
Manzar ABDULXAYROV. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni tabdillari tahlili	330
Dr. Farhad RAHIMI. Senglah Sozlug'unun Feraqi Duzeltmeleri ve Feraqi'den Yanliş ktarmaları Üzerine	335
Gholamreza RAZMI. Özbekistan'da yayimlanmiş iki Hayretü'l-ebrar'in tashih edilmiş metnindeki hatalarin sebeplerine bir bakiş	352
Altay NOORULLAH. Navoiy asarlarida tinish belgilarining yanglish ishlatilishi	365